

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ORFOEPIYA VA ORFOGRAFIYA O'QITISHNING INNOVATSION USULLARI

Ozodaxon Usmonova Jahongir qizi

Farg'onan davlat universiteti

e-mail: 199819952020.f@gmail.com

Annotatsiya: Boshlang'ich sinf o'quvchilariga orfoepik va orfografik bilimlar berishda o'ziga xos usullarni qo'llash o'quvchilar imlo savodxonligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: orfoepiya, orfografiya, imlo me'yorlari, didaktik usul, qoida, imlo xushyorligi, nutq, innovatsion usul.

INNOVATIVE METHODS OF TEACHING ORPHOEPHY AND SPELLING IN PRIMARY EDUCATION

Abstract: The use of specific methods in imparting orthoepic and orthographic knowledge to primary school students is an important factor in improving students' spelling literacy.

Keywords: orthoepy, orthography, spelling rules, didactic method, rule, spelling vigilance, speech, innovative method.

Hozirgi kunda o'zbek tilining ahamiyatini yanada oshirish bo'yicha ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 30 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan tantanali tadbirda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning so'zlagan nutqlari ham e'tiborga molik. Ushbu kunda, ya'ni 2019-yil 21-oktabr kuni davlatimiz rahbari "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" farmon qabul qildi. "Har birimiz davlat tiliga bo'lgan

e'tiborni mustaqillikka bo'lgan e'tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni, ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishingiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz kerak",- dedi Shavkat Mirziyoyev. – Bu olıyanob harakatni barchamiz o'zimizdan, o'z oilamiz va jamoamizdan boshlashimiz, ona tilimizga, urf-odat va qadriyatlarimizga hurmat,Vatanga mehrimizni amaliy faoliyatda namoyon etishimiz kerak". Bugungi kun o'qituvchisining oldiga ana shunday muhim vazifalar qo'yilgan. Shularni inobatga olgan holda har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilarida ona tili va tilshunoslik bo'limlarini chuqur o'rgatib borishi zarur. Ayniqsa, orfografik bilimlarni o'quvchiga o'rgatishda o'ziga xos usullardan foydalansinki, o'quvchi ham orfoepik jihatdan, ham orfografik jihatdan bexato so'zlaydigan va yozadigan bo'lsin. Buning uchun, avvalo, to'g'ri talaffuz va to'g'ri yozish me'yorlarini tilshunoslik boshqa bo'limlari bilan bog'lab o'rgatish lozim. Masalan, orfografiya bo'limining o'zi ham tilshunoslikning bevosita fonetika, leksika, morfologiya, sintaksis kabi bo'limlariga bog'liq holda o'tiladi. Bunday bog'lanish vositasida ham fonetika.morfologiya, sintaksidan o'zlashtirilgan bilimlar mustahkam lanadi, ham orfografik malakalar hosil qilinadi. Avvalo, mактабда orfografiya o'qitish o'quvchilarga to'g'ri talaffuz qilish me'yorlarini o'rgatish bilan bog'lab olib borilmog'i zarur. Ayrim so'z va qo'shimchalar bir xil talaffuz qilinadi-yu, boshqacha yoziladi (ketti-ketdi). O'qitish jarayonida bu masalaga jiddiy e'tibor berish kerak.

Ko'rvu ham orfografiya o'qitishda katta ahamiyatga egadir. Odатда, talaffuz bilan yozilishi bir-biriga mos kelmaydigan so'zlarning imlosini o'rgatishda ko'rvu mashqlaridan foydalilanadi. Yoki talaffuzi bir-biriga mos, ammo yozilishi boshqa so'zlarni aniqlashda quyidagi ish turidan ham foydalanish mumkin.

Berilgan so'zlarning ma'nosini izohlang. Bunda imloning tutgan o'rnini tushuntiring: xush-hush, tuzsiz-tussiz, yod-yot, xo'p-xo'b, ham-xam,s a'va-sava kabi.

O'quvchilarga imloning fonetik yozuv, morfologik yozuv, shakliy yozuv qoidalariга amal qilinishini amaliy mashqlar orqali tushuntiriladi. Morfologik

yozuv o‘quvchilarni savodli yozishga o‘rgatishda, ayniqsa, yozilishi va aytilishi farq qiladigan so‘zlarning imlosini tushuntirishda katta ahamiyatga egadir. Masalan, o‘quvchilar ko‘p hollarda o‘qibsan, o‘qibdi kabi fe’llarda shaxs-son qo‘sishmchasidan avval kelgan –b undoshi o‘rniga talaffuzga qarab -p, -di o‘rniga –ti yozadilar. Bunday hollarda o‘qituvchi morfologik yozuv qoidasidan foydalanib, -b, -di shakllarining qanday aytilishidan qat’i nazar asliga muvofiq yozilishini ta’kidlaydi.

O‘quvchilarda imlo savodxonligini oshirishda eng ko‘p qo‘llaniladigan usullardan biri bu diktantlar o‘tkazish hamda diktantlarda yo‘l qo‘yilgan xatolar yuzasidan tahlil o‘tkazishdir. Masalan, lug‘at diktantni o‘zini ham quyidagi usullarda o‘tkazish mumkin:

1) o‘quvchilarga jarangli undosh bilan tugagan so‘zlarni jarangsiz undosh shaklida o‘qib , lug‘at diktanti o‘tkazish:

2) tarkibida ketma-ket kelgan bir xil undoshli so‘zlarning yarmini aytib, qolganini o‘quvchi yozishini ta’minlaydigan lug‘at diktanti o‘tkazish. Masalan, al-alla, el-ellik,is-issiq,ar-arra kabi.

O‘quvchilarda uchraydigan orfografik xatolarni tuzatishga xizmat qiluvchi „Rasmlar so‘zlaganda” usuli ham yaxshi samara beradi. O‘qituvchi monitorda yozilishi va aytilishi murakkab bo‘lgan narsa- buyumlarning rasmini ko‘rsatadi. O‘quvchilar esa ularning nomini daftarga to‘g‘ri yozishga harakat qilishadi. Rasmlarning barchasi ko‘rsatib bo‘lingach, so‘zlarning to‘g‘ri yozilgan shakli monitorda navbat bilan namoyish etiladi. O‘quvchilar esa unga qarab o‘z xatolarini to‘g‘rilashadi. Mazkur usulni barcha so‘z turkumlariga moslashtirgan holda o‘tkazish mumkin.

Uzoq yillardan buyon pedagoglarimiz to‘gri yozishga o‘rgatish uchun foydalanib kelayotgan ko‘rgazmali qurollardan biri bu – harf cassalaridir. Ko‘pincha harf cassasi sinf doskasi yonida oslib turadi va o‘qituvchi darsda javob bergen o‘quvchiga mazkur harf cassasidan foydalanib biror bir so‘zni yozib berishni so‘raydi. Bunda muallima ona tili darslarida “Harf cassasi”dan

foydalanim, 5 daqqa “To‘g‘ri yozuv” mashqini o‘tkazadi. Mashqda har bir o‘quvchi oldiga harf kassasini oladi va o‘qituvchi tomonidan aytayotgan bo‘g‘in va sodda so‘zlarni, shuningdek, yozilishi murakkab bo‘lgan so‘z va gaplarni yozadi. O‘quvchilar so‘zlarni yozayotganida o‘qituvchi parta oralab yuradi va har bir o‘quvchining ish jarayonini, qanday xatoga yo‘l qo‘yayotganini kuzatadi. Xatoga yo‘l qo‘ygan o‘quvchilar doskadagi “Harf kassasi”sidan foydalanim so‘zni qaytdan yozib beradi. Bu usulning qulayligi shundaki, o‘quvchi ustozini aytayotgan so‘zni eshitadi, his qiladi va uni ko‘rib turgan harflari yordamida o‘z qo‘li bilan yozadi. Bu, birinchidan, mazkur so‘zning yozilish tartibini xotirasida yaxshi saqlab qolishga yordam beradi, ikkinchidan esa, pedagogning bir vaqtning o‘zida sinfdagi barcha o‘quvchilar bilan ishlashiga sharoit yaratadi.

O‘quvchilarning orfografik va orfoepik bilimlarini oshirish haqidagi ushbu usullar muntazam va izchil olib borilganda o‘z samarasini beradi. Onda-sonda yoki mavzu to‘g‘ri kelgandagina ularga murojaat etish yaxshi natija bermaydi. Shuning uchun ham har bir darsda ma’lum darajada o‘rinli foydalansak, biz aytib o‘tgan usullar o‘z hosilini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning „O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 30 yilligi munosabati bilan o‘tkazilgan tadbirda so‘zlagan nutqi.Toshkent.Gazeta.uz.2019-yil 21-oktabr.
2. B.To‘xliyev, M.Shamsiyeva,T.Ziyadova. „O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” Toshkent.,„Yangi asr avlod” nashriyoti.2006-yil.
3. A.G‘ulomov,M.Qodirov “Ona tili o‘qitish metodikasi” Toshkent., “Universitet” nashriyoti.2001-yil.
4. “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari” Toshkent.,„O‘qituvchi” nashriyoti. 1995-yil.
5. Y.G‘ulomov,I.Rasulov, H.Rustamov,B.Mirzaahmedov. „O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” Toshkent., “O‘qituvchi” nashriyoti.1975-yil.
6. O.Roziqov, M.Mahmudov, B.Adizov, A.Hamroyev „Ona tili didaktikasi” Toshkent.,„Yangi asr avlod” nashriyoti. 2005-yil.